

**2-TOM, 11-SON**

**XORAZMSHOH – MA'MUNIYLAR DAVRIDA SHAHARLAR TARAQQIYOTI.**

**Abdrimov Zarifboy Erkinovich** – Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy – iqtisodiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasи o‘qituvchisi.

[abdrimovzarifboy123@gmail.com](mailto:abdrimovzarifboy123@gmail.com)

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** O‘zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshoh-Ma’muniylar davri tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr shaharsozlik tarixi kam o‘rganilgan mavzulardan biri bo‘lib, bu yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlarining kamligidan kelib chiqadi. Xususan, O‘zbekiston davlatchiligi tarixida Xorazmshoh – Ma’muniylar sulolasi davri shaharlarining kelib chiqishi va taraqqiyoti masalasining o‘zi juda kam o‘rganilgan. IX-XI asrlarda iqtisodiy hayot gurillab rivojlanganini yozma manbalar to‘la tasdiqlaydi. Bu albatta hududda shaharlar taraqqiyotiga ham ijobjiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shaharlarning taraqqiyoti va ularning sonining qisqa muddatda oshishi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlanishi albatta o‘z o‘rnida madaniy hayotni jonlanishiga ham ulkan hissa qo‘shtigan. Shu jihatdan olganda, Xorazm vohasining Xorazmshoh – Ma’muniylar davri shaharlari taraqqiyoti masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, mazkur maqola shu mavzuga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** Shahar, taraqqiyot, Istaxriy, Maqdisiy, Xorazmshoh – Ma’muniylar, Kat (Fir), Hazorasp, Urganch, Mizdahqon, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardashushmisan, Kardaranxos, Darxos, Xiva, Puljoy, Bug‘roxon, Ibn Fadlan, S.P. Tolstov

**Аннотация:** В истории узбекской государственности особое значение имеет период правления Хорезмшахов-Мамунидов. История градостроительства этого периода является одной из малоизученных тем, что обусловлено недостатком письменных источников и данных археологических исследований. В частности, в истории государственности Узбекистана вопрос о возникновении и развитии городов периода династии Хорезмшахов-Мамунидов изучен крайне мало. Письменные источники полностью подтверждают бурное развитие экономической жизни в IX-XI веках. Это, несомненно, оказало положительное влияние на развитие городов региона. Развитие городов и быстрое увеличение их количества, а также обеспечение экономической стабильности, безусловно, внесли огромный вклад в оживление культурной жизни. С этой точки зрения, вопрос развития городов Хорезмского оазиса эпохи Хорезмшахов-Мамунидов считается одной из актуальных проблем, и данная статья посвящена этой теме.

**Ключевые слова:** Город, прогресс, Истахри, Макдиси, Хорезмшах - Мамуниды, Кат (Фир), Хазарасп, Ургенч, Миздахкан, Джигарбанд, Джит, Садвар, Ардахушмисан, Кардaranxas, Дархас, Хива, Пулджай, Буграхан, Ибн Фадлан, С.П. Толстов



**2-TOM, 11-SON**

**Annotatsiya:** In the history of Uzbek statehood, the period of the Khwarazmshah-Ma'munids holds particular significance. The urban development history of this era remains one of the least studied topics due to the scarcity of written sources and archaeological research data. Specifically, the origin and development of cities during the Khwarazmshah-Ma'munid dynasty have been poorly explored in the context of Uzbekistan's statehood history. Written sources fully confirm that economic life flourished in the 9th-11th centuries. This undoubtedly had a positive impact on urban development in the region. The advancement of cities and their rapid growth in numbers over a short period, along with ensuring economic stability, made a substantial contribution to the revival of cultural life. From this perspective, the development of cities in the Khorezm oasis during the Khwarazmshah-Ma'munid period is considered one of the pressing issues, and this article is dedicated to this topic.

**Keywords:** City, development, Istakhri, al-Maqdisi, Khorezmshah - Mamunids, Kat (Fir), Hazorasp, Urgench, Misdahkan, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardakhushmisan, Kardarankhos, Darkhos, Khiva, Puljoy, Bugra Khan, Ibn Fadlan, S.P. Tolstov

X asr oxiriga kelib, Xorazmda Gurganchdan tashqari, Misdahqon, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardashumisan, Kardaranxos, Darxos, Xiva, Puljoy (Git), Bug'roxon (Madminiya) kabi yirik shaharlar shakllanib, ularning deyarli barchasida yirik bozorlar bo'lgan.

Arxeologiya va yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm hududida shaharlar deb qabul qilingan jami 64 dan kam bo'lmagan arxeologik yodgorliklar qayd qilingan. Ammo ulardan faqat 32 tasi (bu yerda Ma'muniylar davri shaharlari nazarda tutilgan) haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot bor, shuningdek, bu shaharlarning 20 tasida unchalik katta bo'lmagan hajmdagi statsionar ishlar olib borilgan. Bular asosan, mamlakat chekkasidagi yodgorliklardir. Afsuski, markaziy Amudaryo bo'yи rayonlaridagi muhim shaharlar kam o'rganilgan; o'rta asr geograflari sanab o'tgan 24 shahardan faqat 20 tasi bu mualliflarning yozib qoldirgan qisqacha ma'lumotlari tufayligina ma'lumdir. Mazkur hududning qadimiy shaharlari keyingi ko'p asrlik qatlamlar ostida yashirinib qolgan.

Xorazm shaharlarining ko'pchiligi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lib, bu yo'llar Janubdan, Xurosandan, Jurjon va Movarounnahrdan mamlakatning Amudaryo o'ng va so'l qirg'oqlaridagi markaziy mintaqalari orqali o'tgan. Shaharlarning bir qismi mamlakat chekkasida, mintaqaning ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi va dashtlardagi ko'chmanchilar o'zaro munosabatlarga kiradigan hududda vujudga kelgan. Xorazm urbanizatsiyasining uch hududini ajratib ko'rsatish mumkin:

Markaziy Amudaryo'yi rayonlari, bu yerdagi arxeologik tadqiqotlar bir joyda ko'p asrlar mobaynida mavjud bo'lgan aholi punktlarining ko'proq darajada o'troqlashganini ko'rsatadi;



## 2-TOM, 11-SON

Amudaryoning quyi oqimi – bu yerda shahar tipidagi manzilgohlar oldinroq, VII-IX asrlardan so‘ng paydo bo‘lib, aynan Ma’muniylar davrida gullab-yashnagan;

mamlakatning shimoli-g‘arbiy va g‘arbiy chekkalari, Shimoliy Davdon va Daryolik oralig‘i, bu yerda ayrim shaharlar turli vaqtida mavjud bo‘lgan1.

X asrga oid bo‘lgan bir qancha tarixiy va arxeologik dalillar bu davrda Xorazm iqtisodiy jihatdan tez yuksalish jarayonini boshidan kechirgan, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu yuksalish, avvalo, Xorazm shaharlari sonining gurillab o‘sishi jarayonida yaqqol namoyon bo‘lgan. Arab tarixchisi Tabariy 712 yilda Xorazmning arablar tomonidan istilo qilinishi to‘g‘risidagi hikoyasida Xorazmda faqat uchta shahar Kat (Fir), Hazorasp va, aftidan, Urganch bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tadi2.

Ikki asrdan so‘ng arab tarixchisi Al-Istaxriy (taxminan 930-933 yillarda yozgan) Xorazm shaharlarini sanab ko‘rsatar ekan, o‘n uchta nomni keltiradi: Xorazm (Kas), Darg‘on, Hazorasp, Xiva, Xushmisan, Ardashushmisan, Safardiz, Nuzbar, Kardaronxos, Kardar, Barategin, Mazminiya, Jurjoniya (Gurganj)<sup>3</sup>. Shunga yaqin shahar sonini, ya’ni 9 ta shaharni "Hudud al-Olam"ning noma’lum muallifi ham keltirib o‘tadi<sup>4</sup>.

Nihoyat, yarim asr o‘tgach, yana bir arab muallifi al-Maqdisiy taxminan 985 yilga kelib, Xorazm shaharlari o‘ttiz ikkita bo‘lganligini yozadi: o‘ng qirg‘oqda – Kas, Gardman, Oyxon, Arzaxiva, Nukfag, Kardar, Mizzahqon, Jashira, Sadvar, Zardux, Barategin, Madkaminiya; chap qirg‘oqda – Jurjoniya (Gurganj), Nuzvar, Zamaxshar, Ruzund, Vazarmand, Vaskaxankas, Raxushmisan, Madamisan, Xiva, Kardaronxos, Hazorasp, Jigarband, Jaz, Darg‘on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Sadfar, Masasan, Kardar, Andarstan<sup>5</sup>. Bundan tashqari, Xorazm yo‘llari ustida Sho‘roxon, Xas, Nuzkat, Darson, Juvikan, Amir, Barabsar, Vardara punktlari bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Bu shaharlarning paydo bo‘lishi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishi bunga kuchli turtki bo‘lgan. Bunga biz shaharlar topografiyasini o‘rganish davomida ham ishonch hosil qilishimiz mumkinligini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Al-Istaxriy bu haqda tubandagilarni yozadi: "Hazoraspdan boshlab Jayxunning boshqa qirg‘oqlarida kanallar qazilgan. Ular orasida Hazorasp kanali ham bo‘lib, uzunligi jihatidan u Gavxora kanalining yarmiga teng keladi. Keyin esa Hazoraspdan ikki farsax masofada Kardaronxos kanali bo‘lib, u Hazorasp kanalidan kattadir. Undan so‘ng Xiva kanali keladi. Bu kanal Kardaronxosdan katta, undan kemalar to

<sup>1</sup> Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. // В кн.; Культура и искусство древнего Хорезма. – М; «Наука», 1981, с.220.

<sup>2</sup> Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 250-бет.

<sup>3</sup> МИТТ, т.1, с.178.

<sup>4</sup> МИТТ, т.1, с.216-217.

<sup>5</sup> Ал-Макдиси, текст, 286-289; МИТТ, Т.1, с.186-188.



**2-TOM, 11-SON**

Xivagacha qatnab turganlar" 6. Demak, Istaxriy asarida Amudaryoning chap sohilidagi Hazorasp (Xassa kanali), Kardaronxos (Qal'ajiq, Dovud qal'a kanali), Xiva (Polvonyop), Madra (G'azovot), Buva (Yormish) va Vadak (SHovot kanali) kanallari tilga olinadi. Buva va Vadak kanallarining oxiri qo'shib, Jurjoniya (Gurganj)gacha keltirilgan<sup>7</sup>. Bu kanallardan ko'pchiligida kemalar qatnab, ular ichki savdoda o'ziga xos savdo arteriyasi rolini o'yagan.

Shubha yo'qki, shaharlarning o'sishi mamlakat umumiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim tomonlaridan biri bo'lib, yangicha asosda yuksala boshlagan Xorazm shahar sivilizatsiyasining atrofdagi dashtlar va uzoqroqdagি mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar mustahkamlanayotganidan va kengayayotganidan dalolat beradi.

X asrda Xorazmning iqtisodiy jihatdan nihoyatda faol bo'lganligi arab manbalarida aniq ta'kidlanadi. Xorazmlik savdogarlar, xuddi qadim zamonlardagidek, birinchidan, hozirgi Turkmaniston va G'arbiy Qozog'iston o'mida bo'lgan dashtlar ko'chmanchilari bilan, ikkinchidan, Volga bo'yи – Xazoriya (keyinchalik Dashti Qipchoq) va Bulg'oriya bilan, nihoyat, SHarqiyl Yevropadagi keng slavyanlar olami bilan savdo aloqalarida bo'ldilar. Istaxriy X asrdayoq bu yerda savdo aloqalari kengayganligi to'g'risida shunday degan: "Xorazm – hosildor, oziq-ovqati va mevalari ko'p shahar (madina), faqat yong'og'i yo'q; bu yerda paxta va jundan ko'p narsalar tayyorlanadi hamda bu narsalar uzoq-uzoq joylarga eltiladi. Aholisining ajralib turadigan xususiyati – boyligi va mardlik ko'rsatishga intilishidir" <sup>8</sup>.

X asr oxirida yozilgan "Hudud al Olam" asarining bizga noma'lum bo'lgan muallifi Kat shahri to'g'risida quyidagilarni yozadi: "...SHaharning boyligi katta. Bu yerdan yostiq jildi, qavima kiyim-bosh, ip gazlama, kigiz, qor (?), ruxbin (pishloqning bir turi) chiqariladi" <sup>9</sup>.

Ayniqsa, al-Maqdisiy e'tiborga loyiq ma'lumotlar yozib qoldirgan. U Bulg'ordan Xorazm orqali keltirilgan mollar qatori Xorazmning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ham ko'rsatib o'tgan: "...Xorazmda uzum, mayiz ko'p, bodom mag'izi, kunjut, yo'l-yo'l kiyim-boshlar, gilamlar, ko'rpalari, ajoyib kimxob, "mulxam" degan choyshab, qulf, rangli kiyimlar, eng kuchli odamlargina ega oladigan kamonlar, alohida bir xil pishloq, zardob, baliq tayyorlanadi. U yerda kemalar yasaladi, yasalganda ham nihoyasiga yetkaziladi" <sup>10</sup>. Bu ro'yxatlardan ko'rinib turibdiki, Xorazm hunarmandchilik sanoati mahsulotlarining mamlakatdan chetga chiqarilgan turlari yildan-yilga ancha ko'payganligidan dalolat beradi. Istaxriy asarida va "Hudud al Olam"da Xorazm ko'proq dehqonchilik-chorvachilik o'lkasi, ya'ni, asosan, tashqariga shu sohalarga tegishli buyumlar va mahsulotlar hamda xom ashyo

<sup>6</sup> МИТТ, м. I, с. 179.

<sup>7</sup> МИТТ, м. I, с. 179.

<sup>8</sup> МИТТ, м. I, с. 180.

<sup>9</sup> МИТТ, м. I, с. 216.

<sup>10</sup> МИТТ, м. I, с. 202.



**2-TOM, 11-SON**

chiqarilgan bo'lsa, al-Maqdisiy ro'yxatida tashqariga chiqariladigan mollar ichida metall ishslash (qulf), qurolozlik (kamon), kemasozlik sanoati mahsulotlarini ham ko'ramiz.

Manbalardan tashqari, arxeologik tadqiqotlarga ham murojaat qilganimizda, bular hammasi o'z tasdig'ini topadi. Arxeologik ma'lumotlar, manbalarda ko'rsatilgan shaharlarning qoldiqlarini topib o'r ganib chiqish shuni ko'rsatdiki, ba'zilari hozirgi kungacha o'z nomini saqlab qolgan bo'lsa (Hazorasp, Xiva, Urganch (Gurganj, Jurjon), Sho'roxon), ba'zilari o'rta asrlarning so'nggi davrlaridagi nomi bilan bizga ma'lum (Darg'on, Misdahqon, Zamaxshar va boshqalar). Hozirgi kunda saqlanib qolgan o'rta asrlar shaharlar qoldiqlarining ba'zilari esa manbalarda ko'rsatilgan shaharlarning qaysi biriga mos kelishi to'liq aniqlanmagan.

Shu o'rinda o'rta asrlar Xorazm savdo shaharlarning tuzilishining qiyosiy tahlili borasida, S.P.Tolstov fikricha, o'rta asrlar Sharq shaharlari taraqqiyotiga xos bo'lgan xususiyat hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

B.B.Jukovskiy, V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, A.Yu.Yakubovskiy va I.P.Petrushevskiy kabi mashhur tarixchilarning Markaziy Osiyo shaharlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti to'g'risidagi kontseptsiyasiga muvofiq o'rta asr shaharlari, dastlab, qal'aning (ark, qo'handiz) atrofida yuksaladi, keyinchalik, u rivojlanib, shahriston, ya'ni shahar vujudga keladi, so'ogra shahar atrofidagi joylar – rabodlar rivojlanadi. XI asrga kelganda, shahar iqtisodiy va ijtimoiy hayotining sur'ati rabodlarga o'tadi va, oxir-oqibat, shahar uch qismidan iborat bo'lib qoladi<sup>11</sup>.

S.P.Tolstov o'z tadqiqotlari davomida bu fikr faqat Xorazm uchun emas, balki yalpi Markaziy Osiyo shaharlari uchun ham to'liq mos kelavermasligini ko'rsatib o'tib, VIII-IX asrlarda vujudga kelgan shaharlarning ayrimlari shaharcha yoki istehkomli rabodlar tariqasida, qal'a etagida rivojlanganligini (Burgutqal'a, eski Norinjon), ba'zilarining esa, ayniqsa, X asrda va keyinroq vujudga kelgan shaharlarning (Guldursun, Qavatqal'a, Janpiqqal'a, Dovdonqal'a) hech qanday arki bo'lmaganligi, ular atrofi ba'zan istehkomlanmagan, goho-goho esa istehkomlangan (Guldursun) bitta shahristondan iborat bo'lganligini ta'kidlaydi<sup>12</sup>. Bu o'rinda, Xorazm shaharlarning vujudga kelishini amalda chuqur o'r ganib chiqqan S.P.Tolstov haq bo'lsa kerak (Markaziy Osiyo miqyosida bo'lmasa ham).

Xorazmdagi ayrim shaharlarga uch qismidan iborat bo'lgan (Kat, Gurganj, Bug'roxon). Arxeologik tadqiqotlar davomida o'r ganilgan ko'pgina yodgorliklar yana o'rta asrlar sharqiga xos bo'lgan ulkan dehqonchilik tumanlari – rustoqlar markazi ham bo'lgan (Misdahqon, Qavatqal'a, Zamaxshar, Hayvonqal'a va shu kabilar). Xullas, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivoji bilan bog'liq holda, X-XI asrlarda o'ng qirg'oq va

<sup>11</sup> Якубовский А.Ю. Феодальное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. МИУТТ, I, с.4-5.; Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 254-бет.

<sup>12</sup> Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 254-255-бетлар.



**2-TOM, 11-SON**

chap qirg‘oq Xorazmda shaharlarning gurkirab rivojlanganligini ilmiy manbalar ham, arxeologik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Chap qirg‘oq Xorazmning janubiy chekkasida joylashgan yirik shaharlardan biri – Darg‘on shahri (hozirgi Darg‘onota qishlog‘idan 3 km janubdag‘i yodgorlik) bo‘lib, qulay geografik mavqeい (Amudaryoning asosiy kechib o‘tish joyida joylashganligi) va Xorazmni Buxoro, Amul (CHorjuy) va Marv bilan bog‘lovchi muhim savdo yo‘lida joylashganligi uning juda tez o‘sishiga imkon yaratgan. Maqdisiy uni Xorazmning Gurganjdan keyingi ikkinchi yirik shahar bo‘lganligini ta’kidlaydi. SHahar atroflaridagi juda katta hududda 500 ta tokka ega uzumzor mavjud bo‘lgan<sup>13</sup>.

Urganchga boradigan yo‘l ustida joylashgan yana bir yirik savdo shahari bu Hazorasp bo‘lib, u Xorazmning eng kuchli chegara qal’alaridan biri ham bo‘lgan<sup>14</sup>.

Xivadan shimoli-g‘arbda Zamaxshar shahri (ba’zi manbalarda u yirik qishloq sifatida eslatiladi) joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar bu shaharning yirik hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo‘lganligini tasdiqlaydi. Zamaxshar harobalarida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar davrida topilgan turli-tuman hunarmandchilik buyumlari: temir, sopol, shisha buyumlar, tugallanmagan mahsulotlar va qoliplar, ishlanmagan temir va mis parchalari bu yerda hunarmandchilikning: temirchilik, degrezlik, miskarlik, kulolchilik, shishagarlik, to‘qimachilik va duradgorlik kabi sohalarining gullab-yashnaganini ko‘rsatadi. Bir joydan ko‘proq bir xil mahsulotlarning ko‘plab topilishi shaharda hunarmandchilikning ixtisoslashganligini, o‘ziga xos hunarmandlar mahallalarining mavjudligini ko‘rsatadi.

"...Zamaxshar – atrofi devor bilan o‘ralgan, tevaragida handaq mavjud kichkina shahar. U temir qoplangan darvoza, qamoqxona va har kuni kechqurun ko‘tarib qo‘yiladigan ko‘prikka ega. SHahar savdo yo‘li ustida joylashgan..." deb yozadi u haqda Maqdisiy<sup>15</sup>.

Chap qirg‘oq Xorazmning o‘sha vaqtidagi poytaxti – Gurganj (arabchada –Jurjoniya) IX-X asr manbalarida ham yirik shahar sifatida eslatiladi. Gurganj, ayniqsa, Sharqiy Yevropa bilan savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi bilan yildan-yilga taraqqiy eta borgan va Xorazmning birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan savdo markaziga aylanadi. Al-Istaxriy u haqda: "Bu – Xorazmning poytaxtidan (ya’ni, Kat (Kos)dan) keyin turuvchi eng katta shahridir; u – guzlar bilan savdo qilinadigan joy, Jurjonga, xazorlar tomon va

<sup>13</sup> МИТТ, т. I, с. 188; yana qarang: Бурханов А. А. Города и поселения Даргансского оазиса левобережья Амудары в системе древних и средневековых торгово-караванных путей (по материалам археологических исследований в Лебапском велаяте Туркменистана) // Вестн. Новосиб. гос. ун-та. Серия: История, филология. 2015. Т. 14, вып. 7: Археология и этнография. С. 172–183.

<sup>14</sup> Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг. –МХЭ, вып. 6, -М.: 1963.

<sup>15</sup> МИТТ, т. I, с. 188; yana qarang: Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма. -МХЭ, вып. 7, 1963; Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях Левобережного Хорезма. -МХЭ, вып. 7, 1963.



## 2-TOM, 11-SON

Xurosonga ketadigan karvonlar o'sha yerdan yo'nga chiqadi<sup>16</sup>, -deb yozadi<sup>16</sup>. Buni "Hudud al Olam"ning noma'lum muallifining ma'lumoti ham tasdiqlaydi: "Juda boy bo'lmish bu shahar Turkistonga kiradigan darvoza, hamma joylardan keladigan savdogarlar to'planadigan bir joydir" <sup>17</sup>. X asr oxirida Kosni Amudaryo yuvib ketishi bilan Gurganj Xorazm poytaxtiga va birinchi darajali shaharga aylangan. Maqdisiy asarida ham u Xorazmning poytaxti va eng yirik shahri sifatida qayd etiladi<sup>18</sup>.

Gurganjdan janubi-sharqda, Qoraqalpog'istonning hozirgi Xo'jayli tumanida joylashgan va o'rta asr manbalaridagi Mizzahqonga to'g'ri keluvchi Gavurqal'a yodgorligini arxeologik o'rganish davomida bu hudud IX-X asrlarda va undan keyingi davrlarda ham juda serunum, boy rustoq (tuman) bo'lganligi aniqlandi. Makdisiy o'z asarida u haqda: "Mizzahqon – katta shahar, uning atrofida o'n ikki ming qal'a va juda keng rustoq mavjud" -deb yozadi<sup>19</sup>. Amudaryo IX-X asrlarda hoziridan g'arbroqda oqqani uchun Istarixiy uni o'ng qirg'oq Xorazmda joylashganligini ta'kidlaydi va: "Mizzahqon bilan Gurganj bir-biriga qarama-qarshi 3 farsax (18-24 km) masofa oraliqda, daryoning ikki sohilida joylashgan", -deb yozadi<sup>20</sup>.

Xorazmning X asr oxirigacha poytaxti va eng yirik shahri, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Kat (Kos) shahri bo'lgan. Bu yerda VIII-IX asrlarda afrig'iylar, abbosiy va somoniy noiblar tomonidan kumush va mis tangalar zarb etilgan edi, ya'ni zarbxona mavjud bo'lgan<sup>21</sup>. "Hudud al Olam"da: "Kat – Xorazmning bosh shahri, g'uzlar Turkistoniga kiriladigan darvoza, turklar, Turkiston, Movarounnahr va xazorlar muzofoti mollarining ombori, savdogarlar to'planadigan joy..." ekanligi ta'kidlanadi<sup>22</sup>.

IX-XI asrlarda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan Kardor (Kurdor) shahri ham yirik shaharlardan sanaladi. U Amudaryoning quyi oqimining sharqiy qismida joylashgan hamda shu nomli tuman markazi bo'lgan. Uning yaqinidan oqib o'tuvchi kanal ham Kardor deb nomlangan. Ammo o'rta asr manbalarida bu shaharning joylashgan o'rni turlicha ko'rsatilgani uchun hozirgi kunda ham bu to'g'rida biron-bir aniq fikr bildirish qiyin. Bizningcha, bu nom bilan bir necha shahar nomlangan bo'lishi mumkin yoki Amudaryo quyi o'zanining tez-tez o'z oqimini o'zgartirib turishi (qurib qolishi, toshib ketishi, boshqa hududdan oqishi) bilan bog'liq bo'lsa kerak. "Hudud al Olam"da Kardor dasht bilan chegara yerdagi kichik bir savdo manzilgohi sifatida, Kardorning aholisi ko'pligi, ekinlarga boyligi, u yerdan ko'plab qo'zi terisi chiqarilishi ta'kidlanadi<sup>23</sup>.

<sup>16</sup> МИТТ, м.1, с.178.

<sup>17</sup> МИТТ, м.1, с.216.

<sup>18</sup> МИТТ, м.1, с.187-188.

<sup>19</sup> МИТТ, м.1, с.187.

<sup>20</sup> МИТТ, м.1, с.181.

<sup>21</sup> Коинев Б.Д. Среднеазиатские куфические фельсы с изображением коня. //Нумизматика Центральной Азии. – Т.: 1999, с.47-51.

<sup>22</sup> МИТТ, м.1, с.216.

<sup>23</sup> МИТТ, м.1, с.217.



**2-TOM, 11-SON**

Al-Maqdisiy esa Kardorni yirik shahar-qal'a ekanligini ta'kidlab, uning Nukfagdan kattaroq va mustahkamroq ekanligini eslatib o'tadi<sup>24</sup>.

Ya.G'ulomov Kardorni hozirgi CHimboy o'rniда bo'lganligini taxmin qilgani holda, S.P.Tolstov hozirgi Hayvonqal'a yodgorligi aynan shu Kardor shahri bo'lganligini ta'kidlaydi<sup>25</sup>. Keyingi arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, somoniylar davrida Kardor rustog'ida hozirgi kundagi To'qqal'a va Hayvonqal'a yodgorliklari o'rniда ikkita yirik shahar mavjud bo'lib, ulardan To'qqal'a manbalardagi Darsonga, Hayvonqal'a esa Kardorga to'g'ri keladi. Arxeologik tadqiqotlar Hayvonqal'aning IX-X asrlarda juda ham o'sib, Kardor markaziga aylanganini ko'rsatadi<sup>26</sup>.

Ardaxushmisan (yoki Xushmisan) (hozirgi Xorazm viloyati SHovot tumani-dagi Voyangan yodgorligi) bozorlari gavjum va aholisi farovon katta shahar. Maydoni 17 ga bo'lgan. SHahar X asrlardan mavjud. Ibn Fadlanning ma'lumotlariga ko'ra, Ardaxushmisan Kat va Gurganj oralig'ida joylashgan, Amudaryo bo'yidagi shahar bo'lib, unga suv yo'li orqali borilgan<sup>27</sup>.

"Xudud al-Olam"da Ardaxushmisan (Xushmisan) savdogarlarning to'planish joyi sifatida eslatilgan<sup>28</sup>. Istanriy va Maqdisiyalar uni Xorazmnинг Kat (Kos) va Gurganj (Jurjoniya)dan keyingi yirik shahri sifatida ko'rsatishgan<sup>29</sup>. Istanriyga ko'ra Kosdan Jurjoniyagacha masofa 3 kunlik yo'l, Ardaxushmisangacha esa 1 kunlik yo'l, ya'ni 30-40 km bo'lgan<sup>30</sup>. Xivadan Raxushmisangacha (Ardaxushmisangacha) ham masofa shuncha bo'lganligini Maqdisiy ham ko'rsatib o'tadi<sup>31</sup>. Ardaxushmisanda 1219-1220 yillarda bo'lgan Yoqt Hamaviy, u haqda yozib, bozorlari, mahalliy mollari ko'pligi, aholisi badavlat bo'lganligini ko'rsatadi, uni Suriyaning yirik shaharlaridan Nisibin bilan tenglashtiradi, ammo Ardaxushmisan undan aholisi ko'proq va muhtashamroq ekanligini ta'kidlaydi<sup>32</sup>. Demak, shahar aslida Ma'muniylar davrida taraqqiy qilib, XIII asr boshlarida ham o'z salohiyatini saqlab qolgan.

Ardaxushmisan orqali Xivani chetlab, to'g'ri Hazorasp bilan Gurganjni bog'lovchi yo'l ham o'tgan bo'lib, Hazoraspdan Ardaxushmisangacha masofa 16 farsaxdan iborat

<sup>24</sup> МИТТ, т.1, с.187.

<sup>25</sup> Гуломов Я.Г. Қадимги Хоразм сугорилши тарихи. 157-бет., Толстов С.П. ХАЭЭ 1947 года, ИАН СССР, серия истории и философии, т. V, 1948, №2, с.190.

<sup>26</sup> Ягодин В.Н. К вопросу о локализации Кердера. ВКФ АН УзССР, 1963, N 2, с.70-72. Bu haqda qarang:: Очерки истории Каракалпакской АССР. т.1, с.88; Городище Хайванкали – раннесредневековый Кердер. //В кн.; Археологические исследования в Каракалпакии. – Т.: «Фан», 1981, с.78-102.

<sup>27</sup> МИТТ, т.1, с.156.

<sup>28</sup> МИТТ, т.1, с.216.

<sup>29</sup> МИТТ, т.1, с.181; с.206.

<sup>30</sup> МИТТ, т.1, с.181.

<sup>31</sup> МИТТ, т.1, с.206.

<sup>32</sup> МИТТ, т.1, с.410.



## 2-TOM, 11-SON

bo‘lgan<sup>33</sup>. Ardashushmisan o‘rnidagi hozirgi Voyangan yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar manbalardagi fikrlarni to‘la tasdiqlab, Ardashushmisanning o‘rta asrlarda yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi<sup>34</sup>.

Maqdisiy va Istarixi asarlarida ham (ya’ni X asrda) katta, boy shahar deb eslatib o‘tilgan Xiva Xorazmshoh-Ma’muniylar-Ma’muniylar davrida o‘zining eng gullab-yashnagan davrini boshdan kechirgan. SHu davrda Xorazmdan o‘tgan barcha tashqi va ichki savdo yo‘llarining Xivadan o‘tganligi uning taraqqiy qilishiga imkon bergan. Bundan tashqari, Xiva atroflarini sug‘organ Xeykonik (Polvonyop) kanalidan kemalar qatnab, nafaqat ichki, balki tashqi savdoda ham muhim rol o‘ynagan. Xivaning X asr oxiri – XI asr boshlarida yirik savdo markazlaridan biri bo‘lganligini arxeologik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

### FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. //В кн.; Культура и искусство древнего Хорезма. –М; «Наука»
2. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.
3. Якубовский А.Ю. Феодальное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. МИУТТ, I, с.4-5.;
4. МИТТ, т.1, с.188; уана qarang: Бурханов А. А. Города и поселения Даргансского оазиса левобережья Амударьи в системе древних и средневековых торгово-караванных путей (по материалам археологических исследований в Лебапском велаяте Туркменистана) // Вестн. Новосиб. гос. ун-та. Серия: История, филология. 2015. Т. 14, вып.
5. Воробьева М.Г., Латиров-Скобло М.С.,
6. МИТТ, т.1, с.188; уана qarang: Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма. -МХЭ, вып.7, 1963;
7. Кочнев Б.Д. Среднеазиатские куфические фельсы с изображением коня. //Нумизматика Центральной Азии. – Т.: 1999.
8. Гуломов Я.Г. Қадимги Хоразм сугорилиши тарихи.
9. Толстов С.П. ХАЭЭ 1947 года, ИАН СССР, серия истории и философии, т. V, 1948, №2, с.190.
10. Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг. –МХЭ, вып.6, -М.: 1963.
11. Археология и этнография.

<sup>33</sup> МИТТ, т.1, с.211; Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. – Сочинения. Т.III. – М.: «Наука», 1965, с.171.

<sup>34</sup> Мамбетуллаев М.М., Қдырниязов М. Городище Воянган // Археология Приаралья, вып. 1. – Т.: «ФАН», 1982.



**2-ТОМ, 11-СОН**

11. Ягодин В.Н. К вопросу о локализации Кердера. ВКФ АН УзССР, 1963.
12. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. – Сочинения. Т.III. – М.: «Наука», 1965, с.171.
13. Мамбетуллаев М.М., Кдырниязов М. Городище Воянган // Археология Приаралья, вып. 1. – Т.: «ФАН», 1982.
14. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях Левобережного Хорезма. -МХЭ, вып.7, 1963.

